**2-nav** OCH SARIK (LIMON RANGLI), SARIK, KIZGISH SARIK RANGLAR, BARG YUZASIDA 30% GACHA OCH YASHIL RANG, BARG UZUNLIGI 10 SM GACHA, BESHTA YUKORI KAVAT BARGLARI, BARG KALINLIGI URTACHA KALIN BULGAN, 5% GACHA ZARARLANGAN VA SHIKASTLANGAN BARGLAR, BARG BULAKLARI 2% GACHA RUXSAT ETILADI.

**3-nav** BARG YUZASIDA 30% GACHA OCH SARIK, 50% GACHA OCH YASHIL, 20% GACHA TUK YASHIL RANG, BARG UZUNLIGI 12 SM GACHA, XAMMA KAVAT BARGLARI ENG PASTKI KAVAT BARGLARIDAN TASHKARI, URTACHA YUPKA B A R G L A R , Z A R A R L A N I S H DARAJASI 10% GACHA, BARG BULAKLARI 3% GACHA RUXSAT ETILADI.

**4-nav** barg yuzasida 20% gacha och yashil, 50% gacha tuk yashil, 30% gacha och jigarrang tuslar, barg uzunligi 12 sm gacha, ^amma kavat barglari, urtacha yupkd barglar, kasallik va zararkunanda bilan zararlanish 15% gacha, barg bulaklari 5% gacha ruxsat etiladi.

**5-nav** barg yuzasida 50% tuk yashil, 50% tuk jigarrang tuslar, barg uzunligi 15 sm gacha, xamma kavat barglari, xamma kalinlikdagi barglar, kasallik va

zararkunanda bilan zararlanish 20% gacha, barg bulaklari 10% gacha bulishi mumkin.

**TAMAKINI BASMA TIPI BARGLARINI TOVAR NAVLARI TAVSIFI (TU UZ 64-15895327-01-2004)**

| Kursatgichlar nimi | Tovar navlar uchun tavsifi va me’yorlar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Yukori pav | 1 | 2 | 3 | 4 | *—— |
| Rangi | Tuk kizgish sarik ranglar. Barg yuzasida 10% gacha och yashil rang. | Tuk kizgish sarik ranglar. Barg yuzasida 25% gacha och yashil rang. | Tuk kizgish sarik ranglar. Barg yuzasida 25% gacha och yashil rang. | Tuk k i a **11111** sarik ranglar. Barg yuzasida 50% gacha och yashil rang. | Sarik-yashil ranglar. Barg yuzasida 50%gacha tuk yashil, 100% gacha och yashil tuslar | Sarik-jigarrang. Barg yuzasida 50%gacha och yashil, 50%gacha tuk yashil, tuslar |
| Barg ulchami, sm, kup emas | 12 | 12 | 16 | 16 | 20 | 20 dan oshik |
| Bargni uzuv kavati Pulicha jollashuvi | Yukori kavat barglari | Yukori kavat barglari | Yukori va urta kavat barglari | Xamma kavat barglari, eng pastki kavat barglaridan tashkari | Xamma kavat barglari, eng pastki kavat barglaridan tashkari | Xamma kavat barglari |
| Ba\|>g otpishi | Kalin | Kalin | Kalin na urtacha kalin | Kalin va urtacha kalin | Urtacha yupka va yupka | Xamma kaliplikdagi |
| «ararkuna 11,1:1. lap щrajasm f mayë | Umuman zararlanmagan barglar | Umuman zararlanmagan barglar | Zararlanish va shikastlanish darajasi 10% gacha | Zararlanish va shikastlanish darajasi 15% gacha | Zararlanish va shikastlanish darajasi 20% gacha | Zararlanish va shikastlanish darajasi 20% gacha |
| Ifloslanish (kum, tuprok) darajasi %, kui emas | 1 | 1 | 2 | 2 | 3 | 3 |
| Namligi %, kam emas kup emas | 12... 16 | 12...16 | 12...16 | 12...16 | 12...16 | 12... 18 |











## Quritilgan tamakini saqlash

Quritilgan tamaki extiyotlik bilan bogunlardan olinishi kerak. Barglar juda murt buladi va shikastlangan barglar daromadni kamaytiradi. Kuritilgan tamakini saklash uchun shoda kilishda ipning ikki uchidan olib birlashtiriladi. Barglar kuritilgandan kuritish bogunlaridan asosan ertalab, xavo namligi yukori bulgan vaktda olinadi va 4-5 ipdan kilib extiyotlik bilan olinadi. Saklashga fakat bir uzuvdagi, rangi va ulchamiga kura bir xildagi tamaki iplari joylashtiriladi.

Xar bir uzuv barglarini aloxida joyga saklanishi uni namlantirish va toylashda ancha yengillik tugdiradi. Tamaki shodalarini zichlashtirib ayvonlarga tavsiya etilmaydi. Bu ularni xaddan tashkdri nam olishiga yoki aksincha kurib ketishiga olib keladi. Tamaki shodalari ayvonda osilsa, ular xaddan ziyod kurib ketishi mumkin.

Kuritilgan barglarni toza joyga (ayvonda) poy urib saklash lozim. Bunda xar bir terim aloxida saklanishi ularni navlarga ajratishni osonlashtiradi

- Tamaki saklaydigan joylar toza bulishi kerak. Bu joylarda ugit, turli yokilgi materiallari va boshka maxsulotlarni saklash kat'iyan man kilinadi.
- Tamakini Dyubek va Basma navlarini barglari shoda kilinib, ayvonlarda saqlanadi

## 3.4.Tamakini qayta ishlash.

Tamakini qayta ishlash korxonasini loyihalash uchun bosh reja tanlangan edi. Shu rejaga asosan qurilish va mantaj ishlari olib bortladi. Bunga ko’ra korxonada quyidagi ishlab chiqarish sexlari va yordamchi binolar quriladi.

1.Asosiy ishlab chiqarish sexi.

2.Laboratoriya.

3.Xo’m-ashyoni vaqtinchalik saqlash omborlari.

4.Tayyor mahsulotni saqlash omborlari.

5.Tarozixona.

6.Qorovulxona.

7.Administrativ binolar.

8.Xojatxona.

9.Maxsus xonalar.

10.Elektromexaniklar xonasi.

11.Profilaktoriya –damolish va davolanish xonalari.

12. Yong’in xavfsizligi inshootlari.

13.Kanalizasiya.

14. Avtomobil va temir yo’l yulakchalari.

15. Piyodalar yulakchalari.

16. Bog’lar va gazonlar.

17. Suv saqlanishi va xordik chiqarish uchun hovuzlar.

18. Avtogarajlar.

19. Avtomobillarni vaqtinchalik turish joylari.

20. Boshqa ishlab chiqarish uchun kerakli inshootlar.

Bizlar asosan tamakini qayta ishlash sexidagi qurilma va texnologiyalar to’g’risida yozamiz va gapiramiz.

**Texnologik tizimni tanlash va asoslash.**

Tamakini qayta ishlash sexida asosan quyidagi qurilmalar o'rnatiladi va ularda belgilangan jarayonlar amalga oshiriladi.

**Xom-ashyoga ishlov berish sexi.**

1. Saralash stoli – stolning ikki tarafidagi ishchilar xom-ashyoni yaroqli va yaroqsizlarga va ravlarga ajratadilar.
2. Katta hajmli silos – 7-8 tonna tamaki sig'adi.
3. Tushirish va ortish konveyeri – xom-ashyoni tushirish va ortish uchun.
4. Tarozili konveyer – xom-fshyoni tortish uchun.
5. Tebranuvchi to'r-turli xil iflosliklardan tozalaydi.
6. Tugunlarni yoyish va iplarni yechish va ajratib olish qurilmasi.
7. Havoli bo'lgich – havo yordamida ishlov beriladi.
8. Nazorat konveyeri – xom-ashyo nazoratdan o'tkaziladi.
9. Yig'gich – nazoratdan o'tgan xom ashyo yig'iladi.
10. Uzatuvchi konveyer – yig'ilgan xo-ashyoni bir me'yorda uzatadi.
11. Tebranuvchi to'r-turli xil iflosliklardan tozalaydi.
12. Press.
13. Mahsulot ishlab chiqarishga uzatish.
14. Fermentasiyalash sexidagi ishlar va qurilmalar.
15. Turli xil aromatlovchi qo'shimchalar qo'shish .
16. Mahsulot ishlab chiqarish.

## 4. Ekologiya, atrof muhit va xayot faoliyati havfsizligi.

1. Xavfsizlikning umumiy talablari:

a) Texnologik liniyaning ekspluatasiyasi SSBT qoida va normalariga to’liq javob berish kerak.

b) 18 yoshdan kichik bo’lmaganlar medisina ko’rigidan o’tganlar, mahsus programma bo’yicha o’qitilgan ish joyida kirish va birlamchi instruktajdan o’tgan kishilar shu liniyaga xizmat ko’rsatishi kerak.

v) Ishchilar 5 smena davomida mutaxasis nazorati ostida ishlab, mustaqil ishlashga ruxsat olishlari kerak.

g) Liniyaga xizmat ko’rsatish chog’ida quyidagi zararli va xavfli faktorlarga e’tibor berishi kerak.

Yuqori haroratga nisbiy namlikka sistemadagi yuqori bosimga, portlashi va yong’in xavfiga, kuyish va tok urushiga.

d) Ishchilarga beriladigan mahsus kiyim mahsus oyoq kiyim va shaxsiy himoya vositalari amal qilayotgan standartlar va texnik shartlarga javob berishi kerak. Bundan tashqari signalizasiya va yong’inni o’chirish vositalarining joylashishini va ulardan foydalanishni bilish kerak.

### 4.1. Ish boshlashdan oldin havfsizlikning talablari.

a) Liniyaning kompletligi, texnik sozligini, mahsus kiyimlar, mahsus oyoq kiyimlar va maxsus himoya vositalari ko’zdan kechiriladi.

b) Zararli moddalar bor – yo’qligi tekshirilib, kerak bo’lsa mexanik ventilyasiya ishga tushiriladi.

v) Jixoz, instrument va mashinalarning texnik sozligiga ishonch hosil qilish.

g) Boshqarmadan ish topshiriqlari olib, shu ishni bajarishga tayyor bo’lib turish.

**3. Liniyaning ish vaqtidagi havfsizlik talablari:**

a) Ish vaqtida ish zonasiga chek kishilarning kirishiga yo’l qo’ymaslik.

b) Ish rejimini nazorat qiladigan manometr va boshqa priborlarning ko’rsatishiga qat’iy roiya qilish.

v) Liniyani ishga tushirishdagi hamma tadbirlar yoqish – o’chirish (puskstop) to’xtatishlari, buzulishning, aniq vaqt ko’rsatkichlari bilan ish jurnalida qayd etilishi kerak.

g) Avtoklavlarda bosim kamayib ketsa, uning sabablari aniqlanadi.

d) Kechki smenalarda ishchi joylarning yetarli yoritilmaganligi nazorat qilinishi kerak.

**4.2. Avariya xolatidagi xavfsizlikning talablari:**

a) Avariya xolati aniqlangach xizmat ko’rsatuvchi xodim darhol liniyani to’xtatishi chorasini ko’rib birinchi navbatda avariya holatidagi jihozni tokdan o’chirish kerak.

b) Qo’yidagi hollarda texnologik jarayonning qaysi etapda bo’lishidan qat’iy nazar butun liniya to’xtatilishi shart.

- Avtoklavlarda bosim meyyordan ziyod bo’lsa.

- Nazorat aparatlari nasoz holatida bo’lsa.

- Liniyaning asosiy qismlarida yoriqlar, paydo bo’lsa truboprovadlarning devorlari yupqalanib qolsa, svorna qilingan joylardan bug’, suv oqsa va boshqalar.

- Monometrlar nosoz xolatda bo'lib, pajar xavfi to'g'ilganda va bosimni boshqa asbob bilan o'lchab bo'lmaydigan holatda.

v) Avariya hloatlari naryad – dopusk degan xujjatda registrasiya qilinadi.

g) Kuchli zaxarlanish yoki kuyish bilan bog'liq avariya holatlarida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatilishi kerak.

**4.3. Texnologik liniyaning xavfsizlikini baxolash.**

Loyixalanayotgan texnologik liniyada zararli va xavfli sharoitlar mavjud. Yuqori harorot nisbiy namlik, shavqin, vibrasiya, elektr toki nerv va muskul tolalarining toliqishi va shunga o'xuashlar. Masalan: sabzavotlarni yoppasiga qayta ishlash davrida namlik 90% va undan yuqori bo'ladi. Temperatura ham $30^0$S va undan yuqori bo'ladi. Shu zararli fontorlarni bartaraf etishning effektiv usullaridan biri ventilyasiya hisoblanadi.

1. Talab etiladigan havo almashinishi quyidagi formula bilan hisoblanadi: P.V.Soluyanov.

«Proktikum po oxrane truda» Maskva, Kolos 1977.

$$\lambda = \frac{\Sigma m_1 \cdot g_1}{(g в - g н)}; \qquad m^3 / soat$$

$m_1$ – suv bug'larining hosil bo'lishi markazlari.

$g_1$ – har 1 markazda hosil bo'ladigan suv bug'larining miqdori, o'rtacha 2000 2/soat deb qabul qilamaz.

$g_v$ – sex ichidagi 1kg havo tarkibidagi kamlik miqdori (sex ichidagi nisbiy namlik $f_v$ = 87 %)

$$\lambda = R \cdot V = 6 \cdot 72 = 432 \quad m^3 / soat$$

4. Nisbiy namlik va temperatura oshib ketganda so'rib olinadigan havo miqdorini aniqlaymiz.

$L = 3600 \cdot a \cdot v \cdot v$

*a,v* – zontning o'lchami, m/ sek

$L = 3600 \cdot 1{,}2 \cdot 0{,}8 = 3450$ $m^3$ / soat

5. Texnologik liniyaning ish zonasidagi temperatura va nisbiy namlikning optiratura qiymatlarini aniqlaymiz.

$t_o - t_n$ -R $(t_o - t_n)$

$t_o = 15 – 0{,}2\ (30 - 15) = 22{,}2^0$ S

$$\varphi = \frac{Qaa\delta}{Q\text{мма}} \cdot 100\% = \frac{60}{87} \cdot 100 = 66\%$$

6. Ish zonasidagi havo haroratining optimal tezligini aniqlaymiz.

Anemometr ko'rsatishi S = 72 m o'lchanadigan vaqt t = 180 sek

$$V = \frac{S}{t} = \frac{72}{180} = 0{,}4\ \text{м/сек}$$

Temperatura, nisbiy namlik va havo harorati tezligining parametlari ROST · 12 · 1 · 0,05 – 76 ga to'g'ri keladi.

## 4.2. Xavfliliklarning asosiy tavsifi va ular haqida ma'lumot

Hayot faoliyati xavfsizligi – xavflar va ulardan muhofazalanishni o'rganuvchi fan. Bu fanda xavf tushunchasi asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tushunchaga xos ayrim jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Xavf – hodisalar, jarayonlar yoki ma'lum sharoitda odam sog'lig'iga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zarar yetkazishi, ya'ni noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Inson hayotiga va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon, hodisa xavfdir.

Odam yashash muhitining salbiy oqibatlari uning harakatlariga va muhitning energetik holatiga bog‘langan holatda zarar yetkazishga qodir.

Oxirgi ta’rifdagi «yashash muhiti» tushunchasi «atrof-muhit» tushunchasi bilan bir xil, ular o‘z ichiga «biosfera», «texnosfera»larni oladi. Keltirilgan ta’riflar «xavf» atamasini yetarli darajada ifodalaydi. Ammo xavfning bir alohida xususiyatini ko‘rsatib o‘tishni zarur deb hisoblaymiz: yashash muhitiga (tashqi muhitga) ta’sir qilinganda u biosfera va texnosferadagi tartiblilik darajasining pasayishiga olib keladi, bor tartiblilik pasayadi. Bu yerda tartiblilik biosfera va texnosfera elementlarining (bog‘liqlik) o‘zaro bog‘langanligi, fazoda va vaqtda harakat qilishga qodir tuzilishlarni hosil qiluvchilari tushuniladi. Xavfning ta’siri natijasida tuzilishning to‘liq yoki qisman buzilishi sodir bo‘ladi, uning tartibliligi kamayadi, harakat qilish qobiliyati pasayadi yoki umuman to‘xtaydi. Tarkib tartibining bunday o‘zgarishiga quyidagi misolni keltiramiz: tabiiy ofat yoki texnogen halokat ta’siriga uchragan shahar yoki hududning holati. Keltirilgan sistemalarning tartib holatini entropiya tushunchasini ishlatish va uni keng tarqalishi bilan baholash mumkin.

Ifoda qilinganda xavf bu – hodisa, ob’ekt, antropogen ta’sir yoki ularning kombinatsiyasi, mustahkam yashash muhitini buzuvchi yoki buzishga qodir bo‘lgan, uning tartibliligini pasaytirishga, shuningdek odamning hayoti va sog‘lig‘iga xavf keltiruvchi jarayon. Bu yerda yashash muhitining mustahkam holati deganda uning tuzilishini va fazoda hamda vaqtda harakatlanish imkoniyatining saqlanishi tushuniladi.

Bundan tashqari xavflilikni holat sifatida sharhlash mumkin, qaysiki noqulay voqea va jarayonlarning kelishi ayrim sharoitlarning sodir bo‘lishi mumkinligi aniq bo‘lib qoladi. Xavf tushunchasi bilan ayniqsa texnogen, ekologik yoki milliy xavfsizlik masalalari ko‘rib chiqilayotganda bu tushunchalar o‘zaro bog‘langan, ya’ni keng ma’noda xavf-xatar ostida mumkin bo‘lgan xavf yoki amalga oshirish mumkin bo‘lgan u yoki bu xavf tushuniladi. Sistemalarning hammasi ham xavf-xatarga, kimyoviy yoki biologik faol komponentlarning energiyasiga ega va odamning hayot faoliyati sharoitiga (kundalik faoliyatiga)

mos kelavermaydi. Xavflarning sistemasi va ularning yetarli darajadagi to‘liq tasnifi hozirgi vaqtgacha o‘rganilmagan. Xavflar quyidagicha tavsiflanadi:

Kelib chiqish manbasiga qarab – tabiiy, texnik, antropogen, ekologik va aralash xavflar. Bular fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik xavfliklar guruhlariga bo‘linib farqlanadi. Bu masala keyinchalik keng ko‘rib chiqilgan.

Xavflilikning salbiy oqibati kelib chiqish vaqti bo‘yicha – impulsli (harakat birdan vujudga keladi) va kumulyatsiyali (ularning salbiy oqibatlari to‘planadi) xavflar.

Harakat joyiga qarab (lokalizatsiyasiga) – litosferada (erning qattiq qobig‘ida), gidrosferada (uning suv qobig‘ida), atmosferada (kosmosda) ta’sir qiladigan xavflar.

Xavfliliklarning ta’sir oqibati – yashash muhitining vayron bo‘lishi yoki holatining yomonlashuvi, shuningdek odamlarga salbiy ta’sir ko‘rsatganda, ya’ni uning holsizlanishida, kasallanishida, shikastlanishilarda yoki hayoti o‘lim bilan tugashida kuzatiladigan xavflar. Xavfliliklar atrofdagi tabiat muhitida, odamning mehnat faoliyati jarayonida, turmushda, favqulodda holatda va boshqalarda ko‘rinishi mumkin.

Tarkibi bo‘yicha xavfliliklar oddiy (elementar) va hosilali (kombinatsiyalangan), oddiylarning sodir bo‘lishidan kelib chiqadi.

Odamga ta’sir qilish xususiyatiga qarab xavfliliklar aktiv va passivlarga ajratiladi. Ulardan birinchisi odamga o‘zining ichki energiyasi hisobiga ta’sir ko‘rsatadi (masalan har xil tabiiy ofatlar), ikkinchisi esa energiya hisobiga aktivlashadi, uning tashuvchisi odamning o‘zi hisoblanadi (masalan qo‘zg‘almas, yoruvchi va qirquvchi asboblar, yaxvonlik va odam yurgandagi qarshiliklar va boshqalar). Hozirgi kunda fanda yuzdan ortiq oddiy va kombinatsiyalangan xavfliliklar o‘rganilgan. Ularga portlashlar, kasallanishlar, qurg‘oqchilik, zilzila, suv toshqini, yong‘inlar, radiatsiya, dovullar, toliqish, elektr toki, elektromagnit maydoni, jo‘shqin ruhiy zarba, zaharli moddalar va boshqalar kiradi.

Xavfliliklarning ko‘pchiligi yashirin, (potentsial) xarakterga ega va ularni aniqlash (identifikatsiyalamoq) zarur. Xavfliliklarni identifikatsiyalash deganda

ularni sezish va sonini, vaqt, fazoviy va boshqa tavsiflarini aniqlash, ya’ni hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash uchun va profilaktik tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqishga zarur va yetarli bo‘lgan jarayon tushuniladi. Identifikatsiyalash bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfliliklarning turini, ularning ko‘rinish ehtimoli, vaqt va fazoda xavfliliklarni lokalizatsiyalash, ularning harakatidan keltirilgan zararni va boshqalarni aniqlash.

Potentsial xavfliliklar ma’lum sharoitlarda amalga oshadi. Sabablar sharoitlarning yig‘indisini ifodalaydi, bularning natijasida xavfliliklar namoyon bo‘ladi va u yoki bu nomaqbul oqibatlarni keltirib chiqaradi, masalan shikastlar, kasallanishlar va boshqalarni ekologik yoki iqtisodiy zararni.

Potentsial xavfliliklarning aniq xavfliliklarga o‘tishi jarayonining kechishi natijasida sodir bo‘ladi: havf – sabab – nomaqbul oqibat. Masalan:



Nomaqbul oqibatlar ko‘pincha bir necha xavfliliklarning kombinatsiyalarini keltirib chiqaradi. Ko‘pincha o‘sha bir xavf har xil sabablar orqali kerak bo‘lmagan voqealarda ro‘yobga chiqadi. Hayot faoliyat xavfsizligini o‘rganishda texnogen va ekologik xavfliliklar tushunchasi muhim rol o‘ynaydi. Texnogen xavf deganda texnosferali komplekslarning va ularning tuzuvchilarining shunday holatiga, sanoat va boshqa ob’ektlarda avariya va falokatlar sodir bo‘lishi va shaxsning hayotiy eng muhim elementlariga va atrof muhitga aniq xavf tug‘ilishi mumkinligi tushuniladi.

Texnogen xavflarning asosiy manbalari:

1. Har xil mahsulotlarni va energiyalarni olish, energetikani, sanoatni, transportni va boshqalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan odamning xo‘jalik bilan bog‘liq faoliyati;

2. Ishlab chiqarishning murakkabligi, yangi jarayonlarining joriy qilinishida bir biriga bog‘liqligining ob’ektiv o‘sishi, energiyaning yuqori kontsentratsiyalashuvini talab qiluvchi, odam hayotiga xavfli bo‘lgan material va moddalar navbatida tabiat atrof muhiti kompleksiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadilar.

3. Ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari mustahkamligining yo‘qolishi, texnologiyalarining takomil-lashtirilmaganligi va eskirib qolganligi, texnologik va mehnat intizomining pasayishi;

4. Sanoat va boshqa ob’ektlarda avariya va falokatlarni keltirib chiqaradigan xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalar.

Rossiya uchun uning iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘zgarishlarni inobatga olgan holda texnogen xavflarning manbalari quyidagilardan kelib chiqadi:

A. Bir qator ishlab chiqarish jarayonlarining to‘xtashi, xo‘jalik aloqalarining buzilganligi, texnologik zanjirning uzilganligi.

B. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining yemirilish darajasining kuchayishi bir qancha tarmoqlar bo‘yicha 80 foizga yetgan yoki oshgan bo‘lishi.

V. Ishlab chiqarish chiqindilari va energetikasining yig‘ilib
qolishi, shu jumladan radioaktiv, bularning hammasi atrof muhitga zararli moddalarni tarqatuvchi manba hisoblanadi.

G. Nazorat organlari va davlat inspektsiyalarini samarali va talabchanlik ishining pasayganligi.

D. Favquloddagi vaziyatlarning oqibatlarini, ularning kelib chiqish sabablarini kamaytirish va ogohlantiruvchi chora- tadbirlarning pastligi yoki umuman yo‘qligi.

Yuqorida qayd etilgan sabablar Rossiyaning hamma xo‘jalik ishlab chiqarish sohalarida texnogen xususiyatga ega bo‘lgan avariya va halokatlarining kelib chiqish xavfini oshiradi.

Ekologik xavflilikni atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismlari holati sifatida aniqlash mumkin, ya’ni tabiiy xo‘jalik va boshqa shunga o‘xshash tarkibiy qismlar, tabiiy tuzilishlar va ekosistemalar, antropogen va tabiiy ta’sirlarga uchraydigan, bo‘lsa ekologik doirada shaxsning manfaatiga, jamiyatga, davlatga xavf tug‘iladi.

Ekologik xavf manbaalari bevosita va bilvositalar manbalarga ajratiladi.

Bevosita manbalar bu – eng avvalo tabiiy muhitdagi har xil turdagi tabiiy ravishda vujudga kelgan keskin holatlar bo‘lib, ular ekosistemada ko‘rinadigan tarkibiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi, ularning muvozanatini buzishi va salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Ularga iqlim sharoitlarining o‘zgarishi, azon qatlamining kamayishi, issiqxonalar samarasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bilvosita manbalar texnogen, harbiy, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy xavfli omillar hisobiga shakllanadi. Masalan, texnogen avariya natijasida atrof muhitning radioktiv yoki kimyoviy ifloslanishi o‘z navbatida ekologik xavfning manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday ekologik holatlar Rossiyada tabiiy resurslarning yomonlashib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari oxirgi vaqtda Rossiya hududida atrof muhitga xavfli bo‘lgan modda va chiqindilarni, shu jumladan radioktiv moddalarni ko‘mish tendentsiyasi oshib bormoqda, shu bilan birga xavfli ishlab chiqarishlar joylashtirilmoqda. Xavfni o‘rganishda potentsial xavfning faoliyati to‘g‘risidagi aktsioma markaziy o‘rinni egallaydi, bu odam tajribasiga tayangan har qanday faoliyat, potentsial xavfli hech bir turdagi faoliyatda absolyut xavfsizlikka erishish mumkin emas. Bu aksiomadan amaliyot uchun muhim xulosa kelib chiqadi: odamning absolyut xavfsiz faoliyat turi mavjud

emas. Shunday qilib, hayot faoliyat xavfsizligi – yashash muhitidagi ta'sir qiladigan xavfliliklarning ta'sirini to'liq yo'qotish emas, balki ularning kelib chiqish ehtimollarini minimumgacha pasaytirishdir. Xavfliliklarni o'rganishda ko'pincha energoentropiya kontseptsiyasidan kelib chiqadi, ularning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

– har xil texnologik, transport va boshqa jarayonlardan foydalanish, quvvat olish bilan bog'liq bo'lgan (mexanik elektr, kimyoviy, yadroviy va boshqa energiyalarni ishlab chiqish, saqlash va qayta o'zgarishi) yoki zararli moddalarni ishlatish natijasida odamning kundalik faoliyati (ayniqsa uning ishlab chiqarish qismi) potentsial xavfli hisoblanadi;

– yashash muhitida nazorat qilib bo'lmaydigan yoki boshqarib bo'lmaydigan quvvatlarni (energiyani) chiqib ketishi natijasida odamlarning hayotiga va faoliyatiga, ularni o'rab olgan muhitga xavf tug'iladi. Energiyaning chiqishi bilan yalpi zararli moddalarning havo yoki suv muhitiga chiqarib yoki oqizib tashlanishi ularga katta xavf tug'diradi hamda tuproqni ifloslantiradi;

– energiyaning to'satdan chiqishi yoki zararli moddalarning tashqariga chiqarib tashlanishi hodisalarning oqibati hisoblanadi, ya'ni bunday oqibatlar odamlarning shikastlanishi yoki o'limi, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalarini zararlashi, shuningdek yashash muhiti holatining yomonlshuvi bilan bog'liqdir;

– odamlarning o'limi yoki boshqa salbiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalar sabab zanjirining paydo bo'lishi va rivojlanishi asosida sodir bo'ladi, ya'ni foydalanilayotgan texnikalarning ishdan chiqishi va nosozligi, tashqi ta'sirlarning hisob-kitob qilinmaganligi, shuningdek odamlarning noaniq harakatlari bilan belgilanadi. Xavfliliklarning ta'sir qilishi natijasida yashash muhitida tartib kamayadi, tartibsizlikning o'sib borishi bilan entropiya ortadi. Ko'rib chiqilgan kontseptsiya tajriba ma'lumotlariga asoslangan va ikkinchi termodinamikaning boshlanishiga qarama-qarshi emas. Ular tabiiy jarayonlar koinot entropiyasining ko'payishi (entropiya printsipi) bilan kechadi.

Xavfliliklar ko‘rgazmali ifadalash uchun Eyler-Venni miqdorlar nazariyasida ishlatiladigan diogrammalaridan foydalanish mumkin.

Gomosfera va noksosfera tushunchalarini kiritamiz. Ulardan birinchisi ko‘rib chiqilayotgan jarayon faoliyatida odamning bo‘lish bo‘shlig‘ini belgilaydi, ikkinchisi esa – bo‘shliq. Xavfliliklar har doim mavjud yoki vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladi. Bu sferaning joylashuvi asosiy to‘rtta variantda farqlanadi.(1.1 rasmga qarang)




1.1-rasm. Gomosfera (G) va Nokrosferaning (N) joylashashish ehtimoli. 1-xavfsiz holat; 2-qisqa vaqtli holat yoki muayyan joydagi xavflar; 3- xavfli holat; 4-shartli xavfsiz holat.

Keltirilgan rasmdan aytish mumkinki, ya’ni to‘liq xavfsizlik gomosfera va noksosferani (1 variant) bo‘shliqda yoki ularni vaqtincha bo‘linganida ta’minlaydi. Ular qisman yoki to‘liq tutashganda, muayyan joyda yoki to‘liq xavfning (2-3-variant) qisqa vaqtli holati vujudga keladi. Xavfsiz holat odam noksosferada bo‘lganda shartli vaziyatda vujudga keladi, ammo xavfliliklarni neytralizatsiyalash uchun shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish yoki maxsus jihozlangan pana joylarda noksosfera ichida (kuzatish kabinalari, boshqarish postlari, statsionar yoki ko‘chma dam olish xonalari va boshqalar) bo‘lish lozim.

# 5. METROLOGIYA VA STANDARTLASHTIRISH.

Standart – deb standartlanadigan obyektga nisbatan qo'yilgan talablar, normalar va qoidalar kompleksini ko'rsatadigan va tegishli tashkilot tomonidan tasdiqlangan normativ – texnik xujjatga aytiladi. Demak, standart bu bir narsani har tomonlama ta'riflab beradigan xujjat, so'z bilan ifodalangan tasvir namuna ekan.

Konservalangan mahsulotga nisbatan standartni mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida iste'mol qiymatini solishtirib turish uchun etalon vazifasini o'taydigan normativ – texnik xujjat deb ta'riflash mumkin.

Normativ – texnik xujjat esa mahsulot tarkibini, tuzulishini, sifat va morfologik, organoleptik ko'rsatkichlarini normativlashtiradigan rasmiy nashrdir.

O'zbekiston resbulikanining mahsulotlar va xizmatlar sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun 28 dekabr 1993 yil qabul qilingan. Bu qonunning asosiy maqsadi va vazifalari shundan iboratki : odamning hayoti, sog'ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lgan mahsulotlarni realizasiya qilishni nazorat etib borish shu bilan birga mahsulotlarni jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash. Shuningdek iste'molni tayyorlovchining (sotuvchining yoki ijrochining) vijdonsizligidan himoya qilish sertifikatlashtirish maqsadlarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston respublikasining milliy sertifikatlashtirish eng yuqori organi – O'zbekiston respublikasining vazirlar mahkamasi xuzuridagi

O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikasiya markazi – «O'zbekiston Davlat standart» dir.

Viloyatda esa – Regonal standartlash - metrologiya va sertifikasiya markazi. Samarqand viloyatida Amir Temur ko'chasida joylashgan «Sertiko» hisoblanadi.

«O'zbekiston Davlat standart» viloyatda «Sertiko» bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini va sinov labaratoriyalarini akkreditasiya qiladi.

Yuqorida qayd etilgan organlar sertifikatlashtirish organlari va akkreditasiya qilingan sinov laboratoriyalari sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishni amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar, milliy muvofiqlik sertifikatlashtirish rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar. Sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy turda bo'ladi:

majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish.

«O'z.Dav. standart» zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan regional organlariga topshiriladi. Buning viloyatimizda «Sertiko», «Samarqand konserva» ishlab chiqarish jamoa korxonasi akkreditasiya qilingan laboratoriya tomonidan o'tkaziladi.

Jaxonda sertifikatlashtirishning 8 turi mavjud, bizning viloyatimizda eng oddiy va arzon sxema bo'yicha olib boriladi. Bu 7 sxema bo'lib, namuna

materiallarini sinov markazlarida akkreditasiya qilingan labaratoriyalarida mahsulot namunalarini sinash bilan chegaralanadi.

## 5.1. Standartlashtirish, metrologiya, serfikatlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunlari

Yuqorida ko'rsatilgan qonunlarning eng asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ishlab-chiqarish korxonalari, shaxsiy (xususiy) ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining sifatini bozor iqtisodiyoti talablari darajasida hamda iste'molchi hayoti, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

Qonunlarning mazmuni ma’ro’zalar matnining boshqa boblarida batafsil ko’rib chiqilishini nazarda tutib, bu yerda ularning faqat bo’limlarida ko’rsatilgan asosiy masalalarga e’tibor berish bilan chegaralanamiz.

O’zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to’g’risida»gi qonuni 1993 yilning 28 dekabrida qabul qilingan va 1994 yilning 28 fevralidan boshlab amalga kiritilgan. Qonun quyidagi bo’limlardan iborat:

- 1 Bo’lim. Umumiy qoidalar;
- 2 Bo’lim. Standartlashtirish bo’yicha me’yoriy hujjatlar;
- 3 Bo’lim. Standartlar ustidan davlat nazorati;
- 4 Bo’lim. Davlat standartlashtirish va nazorati bo’yicha ishlarni mablag’ bilan ta’minlash. Standartlarni qo’llashni rag’batlantirish.

Ushbu qonunning mazmuni 12 moddada izohlangan

Qonunning «Umumiy qoidalar» bo’limi (1-5 moddalar) standartlashtirishning asosi maqsadini, standartlashtirishning davlat tizimini, standartlashtirish bo’yicha ishlarni bajarish tartibini, standartlashtirish bo’yicha qonunlarni hamda halqaro shartnomalar va bitimlarni»; «Standartlashtirish bo’yicha me’yoriy hujjatlar» bo’limida (6-7 moddalar) O’zbekiston Respublikasi hududida qo’llaniladigan me’yoriy hujjatlarning toifalarini ularga qo’yiladigan asosiy talablar va standartlash bo’yicha me’yoriy hujjatlarning sertifikatlashtirish uchun qo’llanishi; «Standartlar ustidan davlat nazorati» bo’limi (8-10 moddalar) davlat nazorati organlari va obyektlarini, davlat inspektorlarining huquqlari va mas’uliyatlarini, standartlashtirish to’g’risidagi qonunlarni bo’zganligi uchun javobgarlikni; «Davlat standartlashtirish va nazorati bo’yicha ishlarni mablag’ bilan ta’minlash. Standartlarni qo’llashni rag’batlantirish» bo’limi (11-12 moddalar) esa davlat standartlashtirish va nazorati bo’yicha ishlarni mablag’ bilan ta’minlash masalalarini o’z ichiga oladi.

O’zbekiston Respublikasining «Metrologiya to’g’risida»gi qonuni ham 1993 yilning 28 dekabrida qabul qilingan bo’lib, 1994 yilning 28 fevralidan boshlab kuchga kirdi. Ushbu qonunda 22 modda bo’lib, ular quyidagi bo’limlarga kiritilgan:

- 1 bo'lim. Umumiy qoidalar;
- 2 bo'lim. Fizikaviy kattaliklar birliklari , ularni tiklash va qo'llash;
- 3 bo'lim. O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari;
- 4 bo'lim. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati;
- 5 bo'lim. Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash.

Ushbu qonuning «Umumiy qoidalar» bo'limi 1-4 moddalarni o'z ichiga oladi. Unda metrologiyaning asosiy tushunchalari, metrologiya to'g'risida qonunlar majmui, halqaro shartnomalar va bitimlar, metrologiya bo'yicha faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishi izohlanadi. «Fizikaviy kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo'llash» bo'limida 5-8 moddalar ko'rib chiqilgan. Unda fizik kattaliklar birliklari, fizik kattaliklar birliklarining etalonlari, o'lchash vositalari va o'lchashni bajarish uslublari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. «O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari» bo'limi (9-11 moddalar) O'zbekiston Respublikasi metrologik xizmatining to'zilishini, davlat metrologik xizmatlarining tarkibini va yuridik shaxslar metrologik xizmatlarini o'z ichiga oladi. «Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati» bo'limidagi moddalarda (12-20) metrologik tekshiruv va nazorat o'tkazish tartibi, ularning obyektlari, davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining tadbiq sohasi, davlat metrologik tekshiruv va nazoratining turlari, o'lchash vositalarining tiplarini tasdiqlash, ularni qiyoslash va kalibrlash tartiblari ko'rsatilgan. «Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash» bo'limi 21-22 moddalarni o'z ichiga oladi. Bu moddalarda metrologik ishlarni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash va metrologik ishlar va xizmatlar uchun to'lov turlari ko'rsatilgan.

Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun ham 1993 yilning 28 dekabrida qabul qilinib, 1994 yilning 28 dekabrida kuchga kirgan.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotni, xizmatni va boshqa obyektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy asoslarini hamda sertifikatlashtirishda qatnashuvchi tomonlarning huquqlarini, burchlarini va mas'uliyatini belgilaydi. U ham ma'lum modda va boblardan iborat. Qonuning mazmuni 23 moddada izohlangan. Uning quyidagi bo'limlari bor:

- 1 bob. Asosiy qoidalar (1-6 moddalar);
- 2 bob. Sertifikatlashtirish faoliyatiga umumiy talablar (7-9 moddalar);
- 3 bob. Mahsulotni majburiy va ihtiyoriy sertifikatlashtirish (10-19 moddalar);
- 4 bob. Kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risida qonunlarni bo'zganligi uchun javobgarlik (20-23 moddalar)

Qonunning «Asosiy qoidalar» bobida sertifikatlashtirish milliy tizimi; mahsulotni sertifikatlashtirish; muvofiqlik sertifikati; muvofiqlik belgisi; bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish, sinov laboratoriyalarini akkreditlash, sifat bo'yicha eksport-auditor, sertifikatlashtirish sohasida nazorat organi va tekshiruvchan nazorat tushunchalarining mazmuni, sertifikatlashtirishning maqsadi va vazifalari, sertifikatlashtirish to'g'risida qonunlar majmui, halqaro shartnomalar va bitimlar, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari hamda sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari berilgan.

«Sertifikatlashtirish faoliyatiga umumiy talablar» bobida muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisining ishlab chiqaruvchiga beradigan huquqi, ularning tasdiqlanishi va Davlat reyestridan (ro'yxatidan) o'tkazilishi belgilangan. «Mahsulotni majburiy va ihtiyoriy sertifikatlashtirish» bobida sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladigan organ, majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlarning tasdiqlanishi, majburiy sertifikatlashtirish shartlari (sinovning, akkreditlangan laboratoriyalar tomonidan o'tkazilishi, sertifikatlashtirish uchun arizachining pul to'lashi, majburiy sertifikatlashtirishdan o'tish kerak bo'lgan sertifikati yo'q mahsulotlarni reklama qilmaslik va hokazo), majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotga qo'yiladigan talablar (sertifikatlashtirilmagan, sertifikatlashtirishdan o'ta olmagan, sertifikatining muddati o'tgan yoki sertifikati bekor qilingan mahsulotni sotmaslik), mahsulotni majburiy sertifikatlashtirishda ishlab chiqaruvchilarning, tadbirkorlarning vazifalari (majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi kerak bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishi, sertifikatlashtirilgan mahsulotni sertifikatsiz sotmasligi, sertifikatlashtirilgan mahsulot me'yoriy hujjatlar talablariga javob

bermaganda uni ishlab chiqarishni va sotishni to'xtatish va boshqa talablar to'g'risida), tashqaridan keltiriladigan va tashqariga chiqariladigan mahsulotni majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazish tartibi, bu to'g'rida bojxona organlarining vazifalari, majburiy sertifikatlashtirish bo'yicha davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan ishlar, majburiy sertifikatlashtirishga rioya qilish ustidan davlat tekshiruvi va nazorati, tekshiruvchan nazorat o'tkazadigan tashkilotlar, ihtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlar, ihtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan subyektlar va ihtiyoriy sertifikatlashtirishning belgilanish tartibi ko'rsatilgan.

Qonunning ohirgi «Kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish. Sertifikatlashtirish to'g'risida qonunlarni bo'zganligi uchun javobgarlik» bo'limida shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning javobgarligi hamda tayyorlovchilar, tadbirkorlarning majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini bo'zganligi uchun javobgarligi izohlangan.

O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni 1997 yilning 30 avgustida qabul qilingan bo'lib, 18 moddadan iborat. Qonunning birinchi moddasida uning maqsadi, ikkinchi moddasida – ushbu qonunda ishlatilgan asosiy tushunchalarning mazmuni, uchinchi moddasida esa oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunlar majmui belgilangan. Bundan tashqari, qonunning to'rtinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat boshqaruvi organlari (oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlaydigan tashkilotlar va ishlar), beshinchi moddasida mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan me'yorlashtirish (sanitar, veterinar,fitosanitar, gigiyenik me'yorlarni va davlat standartlarini belgilash), oltinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarini, uning uchun mahsus ishlab chiqariladigan va u bilan kontaktda bo'ladigan jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga (ro'yxatga oladigan organ va unga qo'yiladigan talablar), yettinchi moddasida esa oziq-ovqat mahsulotlarini, texnologiyalarini, jihozlarini, uni ishlab

chiqarish, saqlash, tashish va sotish uchun mo’ljallangan vositalarni sertifikatlashtirish masalalari ko’rsatilgan.

Qonunning sakkizinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi ustidan nazorat va tekshiruvlarga, to’qqizinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlarni rejalashtirishga, o’ninchi moddasida yangi oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish va ishlab chiqarishga, o’n birinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga, o’n ikkinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o’rash va markalashga, o’n uchinchi moddasida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga va tashishga, o’n to’rtinchi moddasida ularni realizasiya qilishga qo’yiladigan talablar belgilangan.

O’n beshinchi moddada O’zbekiston Respublikasi hududiga oziq-ovqat mahsulotlarini keltirish, o’n oltinchi moddada inson hayoti va sog’lig’i uchun xavf tug’diradigan oziq-ovqat mahsulotlarini muomaladan chiqarish, o’n yettinchi moddada qo’yilgan me’yor va qoidalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish va yo’q qilish, o’n sakkizinchi moddada esa oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to’g’risidagi qonunni bo’zganligi uchun javobgarlikka tortish tartiblari qo’yilgan.

# VI.IQTISODIY QISM

Bitiruv malakaviy ishimning mavzusiga ko'ra "Tamaki bargini saqlash va dastlabki qayta ishlash kichik korxonasini" loyixaladik. Loyihalanayotgan kichik korxonasini quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlaymiz;

1.Korxonaning **Umumiy daromadi.**

**2. Umumiy xarajatlar.**

**3. Foyda.**

**4. Rentabellik darajasi.**

**5. Qoplash muddati**

Buning uchun, Urgut tumanida mavsymda 8,5 miyng tonna tamaki etishtirilishini bilgan holda uni saqlash va qayta ishlashdan keladigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblaymiz.

Agar 1 kg tamaki bargini urtacha 1,500 sumdan olsak, 1tonna tamaki bargini 1000x1500 = 150000 sum, yani 8,5 x150 = 12750000000=**12750000** ming sum bo'ladi.

1 ta avtomobilga 10 tonna olma ketishini hisobga, 8500/10=850 reys qilinadi. har reysga 50 ming sumdan yo'l haqi bersak: 850x50=**42500** ming sum xarajat qilinadi. Mahsulotni ortish tushirish va omborxonaga joylash uchun 1 kilosiga 100 sumdan sarflasak; 8500x10000=85000000 sum =**85000** ming sum bo'ladi.

**Umumiy xarajat: 12750000 +42500 +85000 = 12877500 ming summ bo'ladi.**

Agar 1500 ishchi ishlasa va 1 kishi 7 oy mabaynida oyiga 600000 sumdan jami 4200 ming sum, mavsumda ish haqi **6300000** ming bo'ladi.

Elektr energiyasi uchun 10000000 sum=**10000** ming sum sarflansa va omborxonani qurish uchun **600** ming sum arenda sarflansa.

**Umumiy xarajatlar: 12877500 +6300000 +10000+600000 = 19787500 ming sum bo'ladi.**

**Tamakini sotish evaziga; 7000 tonna mahsulotni 11000 sumdan sotsak**

**7000x11000=77000000 ming sum daromad qilamiz.**

**Umumiy daromad: 77000 000 ming sum bo'ladi.**

**Foydani topamiz:F=D-T= 7700000-19787500 = 57212500 ming sum bo'ladi.**

**Rentabellik darajasi: $R_d$ =F/Tx100=57212500/19787500 =289%**

**Qoplash muddati $Q_m$ =T/F= 19787500/57212500 =0,35 =4 oy =1yil.**

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar jadvali.

| | Ko'rsatkich nomi | O'lchov birligi | Miqdori |
|---|---|---|---|
| 1 | Korxonaning umumiy daromadi | Ming so'm | **77000000** |
| 2 | Korxonaning umumiy xarajati | Ming so'm | **19787500** |
| 3 | Foyda | Ming so'm | **57212500** |
| 4 | Qoplash muddati | Yil | **4 oy.** |
| 5 | Rentabellik darajasi | Foizda | **289%** |

**7. FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO'YXATI.**

1. Karimov. I. A. Dehqonchilik taraqqiyotidan manbai , Toshkent O'zbekiston 1994 yil.
2. Karimov. I. A O'zbekiston iqtisodiy isloxatlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbekiston 1995 yil.
3. Karimov I.A. "Prezident ma'ruzalari bo'yicha uslubiy qo'llanma, Toshkent- 2012.
4. Karimov I.A. "O'zbekiston – bozor munosabatdariga o'tishning o'ziga xos yo'li", Toshkent- 1994.
5. Karimov I.A "O'zbekiston iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari", Toshkent-1995.
6. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy isloxatlarni chuqurlashtirish yo'lida", Toshkent-1996.
7. Bo'riyev X. Ch. , Rizayev R. "Meva uzum mahsulotlari va texnologiyasi" Toshkent "Mehnat".1996 yil.
8. Bo'riyev X. Ch. Jo'rayev R. J. Alimov O. A. Meva sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. "Mehnat" Toshkent. 2002yil.
9. Jo'rayev R. J., Rizayev R. "Meva ekinlari maxsulotlarini saqlash va ularga dastlabki ishlov berish texnologiyasi". Toshkent. 2003 yil.
10. Ribakov A. A., Ostraxuva S. A. ,"O'zbekiston mevachiligi" Toshkent. "O'qituvchi". 1980 god.
11. Ribakov A. A. "Bog'bonlar va tokchilik uchun spravichnik" Toshkent. 1960
12. Mirzayev M.M, Sobirov M.K "Bog'dorchilik" Toshkent. "Mehnat". 1987
13. Mirzayev M.M, Sobirov M.K "Bog'dorchilik" Toshkent. "Mehnat". 1987
14. Mirzoxidov Sh, Komilov M. "Meva va uzum quritish hamda konservalash". O'zbekiston 2001 yil № 6.
15. Oripov. R, Sulaymonov. I, Umirzoqov. E. "Qishloq xo'jalik maxsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi" Toshkent. "Mehnat". 1991 yil.
16. Bo'riyev X. Ch. Jo'rayev R. J. Alimov O. A. Don va don mahsulotlarini saqlash. "Mehnat" Toshkent. 2002yil.
17. Tamakichilik qo'llanmasi – Samarqand. 2012 yil.
18. Internet saytlari.